

“BAYRAMONA” AKSIYANI O‘TKAZISH QOIDALARI

1. Ushbu qoidalar shartnomaning barcha muhim shartlarini o‘z ichiga oladi va O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga (keyingi o‘rinlarda O‘zR FK deb yuritiladi) muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ushbu qoidalar ishtirok etish shartlarini, g‘olibni aniqlash va Sovrinni topshirish tartibini, shuningdek “ANOR BANK” AJ tomonidan tashkil etilgan “BAYRAMONA” aksiyasini tashkil etish va o‘tkazishning boshqa muhim shartlarini tavsiflaydi.

Ushbu qoidalar O‘zbekiston Respublikasi hududida “Anorbank” ilovasini ommalashtirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi tadbir bo‘lgan “BAYRAMONA” aksiyasini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Aksiyaning tashkilotchisi “ANOR BANK” AJ (“ANORBANK” savdo belgisi egasi) hisoblanadi, yuridik manzili: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Sayram 5-tor ko‘chasi, 4 uy; tel.: +998 55 503-00-00.

3. Aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yin emas va aksiya ishtirokchilari aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy xatarlarga ega emaslar. Aksiyani o‘tkazish tartibi ishtirokchilar tomonidan haq to‘lash bilan bog‘liq emas va aksiyaning sovrin jamg‘armasi faqat tashkilotchi/ijrochi hisobidan shakllantiriladi.

4. Aksiyaning sovrin jamg‘armasi va unga tegishli bo‘lgan xarajatlar tashkilotchi hisobidan shakllantirilib 3 ta (uchta) BYD e2 elektromobillar va ularning soliqlardan iboratdir.

5. Aksiya o‘tkazish muddati:

1-bosqich 2024-yil 5-apreldan 5-maygacha

2-bosqich 2024-yil 6-maydan 6-iyulgacha

3-bosqich 2024-yil 7-iyundan 7-iyulgacha

5.1. 2024-yil 15-may (1-bosqich), 13-iyun (2-bosqich), 15-avgust (3-bosqich) kuni Toshkent vaqti bilan soat 10:00 dan 23:00 gacha 3 (uch) nafar aksiya g‘olibi aniqlanadi, har bir bosqich yakunida 1 ta (bitta) elektromobil o‘ynaladi; butun aksiya davrida 3 (uch) BYD e2 elektromobili o‘ynaladi..

5.2. Aksiya g‘oliblarini aniqlash yakunlari bo‘yicha pul sovrinini o‘tkazish muddati:

Aksiya g‘oliblari e‘lon qilingan kundan boshlab 90 (to‘qson) kalendar kunidan kechiktirmay, sovrin uchun g‘olibdan talab qilinadigan barcha ma‘lumotlarni bir vaqtning o‘zida tashkilotchi va ijrochi taqdim etadi, ushbu Qoidalarning 8-bandida ko‘rsatilgan bo‘lib.

Agar Aksiya G‘olibi ushbu Qoidalarning 8-bandida ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni tashkilotchi va ijrochi taqdim etmasa, u g‘alaba qozonish huquqidan mahrum bo‘ladi.

5.3. Fors-major holatlarida (smartfonlarni yetkazib berishda qiyinchiliklar, Yetkazib beruvchidan kerakli modelining yo‘qligi va boshqalar). Shu sababli, 5.2. band. 5.3-bandning barcha mumkin bo‘lgan fors-major holatlarini hisobga olgan holda kuchga kiradi.

6. Aksiyada ishtirok etish shartlari:

Aksiya ishtirokchisi bo‘lishni istagan har bir kishi bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarni bajarishi kerak:

a) “Anorbank” ilovasining ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchisi bo‘lishi va Aksiyani o‘tkazish davrida “Anorbank” ilovasida ro‘yxatdan o‘tgan bank kartasiga ega bo‘lishi kerak;

b) Aksiya o‘tkazilishi davrida “ANOR BANK” AJ-da 10 000 000 (on million) so‘mdan yoki 1000 (ming) AQSh dollari bo‘lgan istalgan omonatni 2024-yil 5-apreldan 7-iyulgacha soat

23:59 gacha ochishi va omonatning hisob raqamida Aksiya yakunlanguncha minimal 10 000 000 (on million) so'm yoki valyuta omonati taqdirda 1000 (ming) AQSh dollari ushlab turish kerak. Belgilangan vaqtdan so'ng, ochilgan va mablag'i yetarli bo'lmagan omonatlar ishtirok etmaydi.

c) Aksiya ishtirok etish uchun kamida 10 000 000 (on million) so'm yoki 1000 (ming) AQSh dollari miqdoridagi omonatni ochish kerak.

d) Aksiya faqatgina O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ishtirok etadilar.

7. Aksiyaning o'tkazish va aksiya g'oliblarini aniqlash tartibi:

Aksiya o'tkaziladigan butun muddat davomida g'oliblarning umumiy soni 3 (uch) nafarni tashkil etadi. Aksiya davrida bir nechta omonat ochgan ishtirokchining 1 (bitta) ID-si ishtirok etadi, omonatlar sonidan qat'iy nazar.

Aksiya g'olibini aniqlash uchun "Anorbank" ilovasidagi tranzaksiyalarga individual raqamlar beriladi (matnda keyingi o'rinlarda ishtirokchi "ID"-si deb nomlanadi) va aksiya g'oliblarini aniqlash kunida "Random" elektron dasturiga (tasodifiy sonlarni tanlash generatoriga) tushiriladi (yuklanadi).

Sovrinni olish huquqiga ega bo'lgan aksiyaning g'olibi aksiya ishtirokchisi bo'lib, uning ID si "Random" dasturi tomonidan aksiyaning o'tkazish va aksiya g'olibini aniqlash uchun quyidagi algoritm bilan tanlanadi.

Aksiya o'tkazish algoritmi va aksiya g'oliblarini aniqlash bosqichma-bosqich qadamlardan iborat jarayondir:

a) Aksiya g'oliblarini aniqlash uchun ijrochi mazkur Qoidalarning 6-bandida ko'rsatilgan aksiyada ishtirok etish uchun barcha shart-sharoitlarni bajargan va "Anorbank" ilovasida tranzaksiyalar ID lari ro'yxatini "Random" dasturiga tushiradi (yuklaydi);

6) "Random" dasturiga foydalanuvchilarning ID lari ro'yxati yuklanadi va dastur tasodifiy tanlov orqali G'olibning ID sini aniqlaydi.

Aksiya davomida aksiya g'olibini aniqlash natijasini oldindan belgilash imkonini beruvchi tartib-tamoyillar va algoritmlar qo'llanilmaydi.

Aksiya davrida ID lar ro'yxatining hisoboti (tushirilishi) dastlabki ma'lumotlar hisoblanib, ularni yuqorida ko'rsatilgan algoritmgaga muvofiq ishlash jarayonida aksiyaning muayyan BYD e2 elektromobili g'olibini aniqlash uchun faqat 1 (bitta) yutuqli ID chiqarib beriladi.

Ushbu jarayon 3 (uch) marta bajariladi va bunda:

- random yutib oladigan 3 (uch) nafar g'olibni aniqlab beradi

8. Aksiya g'oliblariga sovrinni berish tartibi:

Aksiya o'tkazilgandan so'ng Aksiya g'olibi "Anorbank" ilovasida uning g'olib deb topilganligi va sovrin yutug'i haqida push xabarnomasini oladi. Bundan keyin, g'olibga sovrinni taqdim etish uchun va barcha soliqlarni to'lash uchun, Aksiya g'olibi servis Tashkilotchisi yoki ijrochining xodimiga soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini (STIR) har qanday qulay tarzda topshirishi kerak. Bunda g'olib Tashkilotchi tomonidan barcha soliqlar to'langanidan keyin ushbu Qoidalarning 4-bandida ko'rsatilgan sovrinni shaxsan oladi.

Sovrin G'olibga shaxsan "ANOR BANK" AJ bosh ofisida ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etgandan so'ng va soliqlar to'langanidan keyin topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, O'zR SK 377-modda 5-bandiga muvofiq sovrin mukofotini boshqa daromad sifatida jismoniy shaxslarning daromadlariga (JSHDS) soliq solinadi. Aksiya tartibiga ko'ra, ijrochi sovrin uchun barcha xarajatlarni qoplaydi. Shu bilan birga, soliq uchun to'lovni amalga oshiradi.

Tashkilotchi o'zining anorbank.uz manzilidagi internet-saytida va web-ilovasida tegishli axborotni joylashtirish orqali istalgan vaqtda ushbu qoidalarga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqini bir tomonlama so'zsiz tartibda o'zida saqlab qoladi.

9. Aksiya ishtirok etish Aksiya ishtirokchisi tomonidan anorbank.uz da joylashtirilgan Qoidalarning to'liq va so'zsiz qabul qilinishini, va shuningdek, tashkilotchi tomonidan o'tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar va aksiyalarda ishtirok etish, shuningdek,

taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilashga, shuningdek, marketing va/yoki statistik va/yoki boshqa tadqiqotlarni amalga oshirishga qaratilgan tadqiqotlar uchun ishtirokchi tomonidan mobil ilovada ro'yxatdan o'tkazishda taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarini ishlatilishiga roziligini anglatadi.

Tashkilotchi ishtirokchi bilan turli aloqa vositalari, jumladan (cheklovlarsiz) pochta jo'natmalari, ishtirokchining elektron pochta manziliga (e-mail), mobil telefoniga (SMS-xabarlash orqali) tegishli axborotlarning, shu jumladan, "reklama to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasi (25.12.1998-yildagi 723- I -son) ma'nosidagi reklama tushunchasiga mos keladigan axborotlarni tarqatish, shuningdek tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish maqsadida bevosita aloqalarni amalga oshirishi mumkin.

Aksiyada ishtirok etishi bilan ishtirokchi o'z xohish-irodasi bilan va o'z manfaatlari yo'lida harakat qilib, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq Tashkilotchiga (shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash va ularni qayta ishlash uchun shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilgan holda (ularni to'plash, yozish, tizimlashtirish, yig'ish, saqlash, tasdiqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, tarqatish, taqdim etish, uzatish (shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida), Tashkilotchi va uning kontragentlari tomonidan ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini blokirovkalash va yo'q qilish, shu jumladan avtomatizatsiya vositalari va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari, boshqa dasturiy vositalar, shuningdek, ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini qo'lda, avtomatlashtirilgan va aralash usulda, ham "ANOR BANK" AJ ichki tarmog'i va uning kontragentlari, ham Internet tarmog'i orqali va ham usiz, qayta ishlash uchun o'z roziligini beradi.

Amaldagi qayta ishlash usullari, shu jumladan (cheklovlarsiz), ma'lumotlar bazasini kerakli mezonlarga ko'ra segmentatsiyalashni o'z ichiga oladi. Ushbu rozilik ishtirokchi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan yoki ishtirokchining istalgan shaxsiy ma'lumotlariga, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: familiyasi, ismi, otasining ismi; jinsi; tug'ilgan yili, oyi, sanasi (O'zR qonunchiligida, xususan, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda — shaxsni tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari (pasport), mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili va boshqa ma'lumotlarga nisbatan har qanday harakatni amalga oshirishga beriladi.

Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini ushbu qoidalarga muvofiq qayta ishlashga jalb etiladigan uchinchi shaxslarni tanlash huquqi "ANOR BANK" AJga ishtirokchi tomonidan taqdim etiladi va qo'shimcha kelishuvni talab qilmaydi.

Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni ishlash O'zR amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

10. Aksiyada ishtirok etib, Aksiya g'olibi deb topilgan ishtirokchi Tashkilotchining anorbank.uz manzili bo'yicha saytida, shu jumladan bosma nashrlar, radio va televideniye dasturlari, shuningdek (cheklovlarsiz) Instagram, Youtube, Facebook kabi Internet-ommaviy axborot vositalari va axborotlarni ommaviy tarqatishning boshqa vositalarida o'z ismini, familiyasini, otasining ismini va tasvirlarini (rasmlarini), shuningdek, so'vrin bilan tushirilgan suratlarini joylashtirishga rozilik beradi.

11. Ushbu qoidalarni buzgan taqdirda, tashkilotchi aksiya ishtirokchisini aksiyada ishtirok etishdan so'zsiz chetlatishga haqli. Shu bilan birga, tashkilotchi tegishli ishtirokchiga nisbatan o'z harakatlariga izoh bermaslik huquqiga ega.

12. Aksiya ishtirokchisi o'zi haqida aniq bo'lmagan va/yoki noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatganligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy oqibatlar xavfini to'la hajmda zimmasiga oladi.

13. Ushbu rag‘batlantiruvchi tadbirga muvofiq Aksiyani o‘tkazish natijasi yakuniy hisoblanadi va sud tartibida e‘tirozga uchramaydi.

14. Aksiya ishtirokchisi istalgan vaqtda Aksiya tashkilotchilariga murojaat qilib, Aksiyada ishtirok etishdan voz kechishga haqli.

15. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisi yoki uchinchi shaxsda ushbu aksiya o‘tkazilishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan birorta va hech qanday xarajatlarni qoplamaydi.

Tashkilotchi telekommunikatsiya va energetika tarmoqlarida uzilishlar, zararli dasturlarning ta’sirlari, shuningdek “ANOR BANK” AJ ning dasturiy va/yoki apparat majmuasidan ruxsatsiz foydalanish va/yoki ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning noinsoflik bilan qilgan xatti-harakatlari oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozimlik darajasida bajarmaganlik uchun javobgar bo‘lmaydi.

Aksiya Tashkilotchisi, agar biron sababga ko‘ra, ushbu aksiya yoki uning biron bir qismi kompyuter viruslari, nuqsonlar, manipulyatsiya, ruxsatsiz aralashish, soxtalashtirish, texnik muammolar valyuta kursining keskin sakrashi / o‘zgarishi taqdirda sanksiyalar, va/yoki “ANOR BANK” AJ tomonidan nazorat qilinmaydigan har qanday sababga ko‘ra aksiyaning bajarilishiga, xavfsizligiga, halolligiga, yaxlitligiga putur yetkazadigan yoki ta’sir qiladigan bo‘lsa, aksiya o‘tkazilishini bir tomonlama bekor qilish yoki to‘xtatib turish huquqiga ega.

16. Tashkilotchining xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari Aksiyada qatnashishi mumkin emas.

17. Tashkilotchi anorbank.uz da tegishli ma’lumotni joylashtirish orqali istalgan vaqtda Ishtirokchini oldindan shaxsan ogohlantirmasdan, mazkur Qoidalarga o‘zgartirish va/yoki qo‘shimchalar kiritish, aksiya o‘tkazilishini to‘xtatish/to‘xtatib turish/bekor qilish huquqini so‘zsiz o‘zida saqlab qoladi.

18. Agar Aksiya G‘olibi 15 (kalendar) kun ichida Tashkilotchi yoki ijrochi bilan bog‘lanmasa, uning mukofoti bekor qilinadi.